

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI BUXORO DAVLAT
UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA INSTITUTI MAKTABGACHA
TA‘LIM VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM NAZARIYASI VA
METODIKASI KAFEDRALARI**

**“BOSHLANG‘ICH VA MAKTABGACHA TA‘LIM SIFATI VA
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI:
INNOVATSIYA, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XALQARO
TAJRIBALAR”**

RESPUBLIKA ILMY-AMALY ANJUMANIMATERIALLARI

2022-yil, 13-14 may

BUXORO- 2022

Ilmiy-amaliy anjumanning dasturiy qo‘mitasi

O.H. Hamidov	–	Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisod fanlari doktori, professor, rais.
M.I. Damonov	–	Buxoro davlat universitetining Pedagogika institut direktori, pedagogikafanlari nomzodi, dotsent, rais
Sh.N.Murodov	–	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, f-m.f.d (PhD)dotsent, rais muovini;
A.A. Ikramov	–	IT, I va IPKTB bo‘limi boshlig‘i, p.f.f.d. (PhD), a‘zo;
O.R.Avezov	–	Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dekani, a‘zo;
G.T. Boymurodova	–	Maktabgacha ta‘lim kafedrası mudiri p.f.d (DSc), dotsent, a‘zo
M.J. Saidova	–	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD),dotsent, a‘zo;
U.S. Amonov	–	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD), a‘zo;
N.T. Tosheva	–	Maktabgacha ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD), dotsent, a‘zo;
F.S. Safarov	–	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası dotsenti, f.f.n., a‘zo;
X.A. Hayitov	–	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası dotsenti, f.f.f.d.(PhD), a‘zo;
N.B. Adizova	–	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD), a‘zo

Ilmiy-amaliy anjumanning tashkiliy qo‘mitasi

Sh.N. Murodov	-	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha director o‘rinbosari, f-m.f.d (PhD)dotsent, rais muovini;
A.A. Ikramov	-	IT, I va IPKTB bo‘limi boshlig‘i, p.f.f.d. (PhD), a‘zo;
G.T. Boymurodova	-	Maktabgacha ta‘lim kafedrası mudiri p.f.d (DSc), dotsent, a‘zo
M.J. Saidova	-	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD),dotsent, a‘zo;
N.T. Tosheva	-	Maktabgacha ta‘lim kafedrası dotsenti, p.f.f.d. (PhD), a‘zo;
N.B. Adizova	-	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD),a‘zo;
G.E. Saidova	-	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;
D.S.Do‘stova	-	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
M.N. O‘rinova	-	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
N.O‘. Xudoyberdiyeva	-	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası o‘qituvchisi, kotib;
G.D.Niyozova	-	Maktabgacha ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi
S.H.Ro‘ziyeva	-	Maktabgacha ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi
Z.M.Ashurova	-	Maktabgacha ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi
U.B.Muxsinova	-	Maktabgacha ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

To‘plam O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-martdagi 101-F-sonli farmoyishida tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida 2022-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishi maqsadida 2022-yil 13-14-may kunlari Buxoro davlat universitetining pedagogika instituti maktabgacha ta‘lim va boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedralari hamkorligida **“Boshlang‘ich va maktabgacha ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish muammolari: innovatsiya, raqamli texnologiyalar va xalqaro tajribalar”** mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas‘ul muharir:

M.J. Saidova pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

B.R. Adizov, pedagogika fanlari doktori, professor

N.T. Tosheva, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 iyundagi "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 369-sonli qarori.
3. Aliyev A. Ma'naviyat, kadriyat va badiiyat. - T.: Ma'naviyat, 2000.
4. Alikulov X. Gumanistik meros va shaxs ma'naviy kamoloti. - Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
5. Amonov U. S. O 'qish darslarida maqol janridan foydalanish usullari va ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124 US
6. O.R.Avezov. [Ekstrennaya psixologicheskaya pomosh v ekstremalnih situatsiyax](#). Vestnik integrativnoy psixologii 4 (No. 21), 34-37.
7. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
8. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Nodira Adizova Bakhtiyorovna. "linguistic classification of toponyms of bukhara district." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (*EJEDL*) 2.09 (2021): 1-
9. Safarov F. S. et al. The effect of a tissue biostimulator on embryonic and post-embryonic development of lambs //Uchen. Zap-azerb. sel'.-khoz-Inst. Ser. zhivot. – 1970. – №. 2. – С. 38-41.
10. Hayitov H. A. Sharq mumtoz adabiyotida ohang talqini //Мировая наука. – 2019. – №. 8. – С. 3-5.
11. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. [An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics](#)// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174
12. Ergashovna S. G. Formation of concepts about length in primary school students, developing length measuring skills. – 2021.
13. Джураева С. Н., Дустова Д. С. Способы воспитания личных качеств у студентов педагогической специальности //Academy. – 2019. – №. 6 (45). – С. 96-98
14. O'ktamovna X. N. O'zbek romanlarida tarixiy inversiyani berish usullari va vositalari //Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 430-433.
15. Ruzieva S. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA LUG 'AT ISHI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHISHNING INNOVATSION YO 'LLARI //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2021. – Т. 1. – №. 1.

INSON RIVOJLANISHIDA TABIATNING ROLI HAQIDA QADIMGI QO'LYOZMALARDA YORITILISHI

**Rajabova Iroda Hamidovna,
Ergasheva Gulzoda Baxtiyorovna,
Bux DU Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchilari**

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiatning roli, mashg'ulotlarning ahamiyati juda katta ekanligini inobatga olgan holda faoliyatning barcha yo'nalishlariga e'tiborli bo'lish hamda ularni zamonaviy pedagogik innovatsiyalar asosida o'tkazish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, pedagogika, tabiat, mashg'ulot, uzluksiz ta'lim, zamonaviy pedagogik texnologiya, ta'lim, tarbiya.

Tabiat – bu insoniyat yashashi uchun buyuk makon, nozu- ne'matlar manbai bo'lib, uni asrash har bir insonning burchi, bu borada xalqimiz o'zining milliy-tarixiy an'analariga ega. Bu an'analar doimo rivojlantirilib, boyitib kelingan. O'tmishdan ma'lumki, tabiat insoniyat uchun bebaho qadriyatdir. Tabiat tug'ilish, yashash, o'sish faoliyati maydonidir. Inson tabiat bilan birga yashaydi, o'sadi, rivojlanadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng tabiatni muhofaza qilishga oid ma'naviy qadriyatlar ham xalq hayotida to'laroq namoyon bo'la boshladi. Mustaqillik tufayli yurtimizda qadim-qadim zamonlarda kechgan davlatchilik taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotni atroflicha tahlil va tadbiq etish imkoniyati vujudga keldi. Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekistonda bu muammoning yechimiga intilish uzoq tarixga ega. Zero, "Sivilizatsiya belgilarini asrab-avaylash qanchalik zarur bo'lsa..., yer va suvni asrab-avaylash ham shunchalik muhimdir. Yer, havo, suv va olov (Quyosh) Markaziy Osiyoda qadimdan e'zozlab kelingan, ajdodlarimizning zardushtiylikdan tortib to islomgacha bo'lgan barcha dinlari tomonidan munosib qadrlab kelingan".

Ta'lim-tarbiyaning o'z oldiga qo'ygan maqsadi va vazifalarini yaxshi bilmasdan turib yosh avlodni tabiat bilan tanishtirishda ularni maqsadga muvofiq tarbiyalab bo'lmaydi. Buning uchun xalq

manfaatlarini aks ettiruvchi tarbiyaning maqsadlari to'g'risidagi tasavvur qanday vujudga kelgan va bu tasavvurlar keyinchalik qanday rivojlanganligi hamda pedagogik tomondan qanday ta'rif va tavsif berilganini eslash maqsadga muvofiqdir. Shuni aytish kerakki, hayotda har bir fanning yuzaga kelishi hayotiy zarurat natijasidir. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi ham ana shunday hayotiy zaruratning mahsulidir. Bu fan o'z oldiga ana shu tabiat elementlari vositasida yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi. Tarbiya esa pedagogikaning bosh vazifasidir.

Tabiat - bitmas-tuganmas xazinadir. O'simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to'g'ri o'sib shakllanishida, tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalarning sir-asrorini o'rganib voyaga yetishida katta manba bo'lib xizmat qiladi. Tabiatdagi narsalar ikki qismdan: jonsiz va jonli tabiatdan iboratdir. Jonsiz tabiatga yer, quyosh, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq, jonli tabiatga esa o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, odamlar kiradi. Jonsiz tabiat deyilishiga sabab ular oziqlanmaydi, o'smaydi, ko'paymaydi, rivojlanmaydi. Masalan, toshni olsak, unga suv ham, havo ham kerak emas. Jonli tabiatga kiruvchilar esa oziqlanadilar, nafas oladilar, o'sadilar va ko'payadilar. Jonli tabiat vakillari o'simlik, havo, suv, yoruhlik, issiqlik va ozuqa bo'lmasa yashay olmaydi. Jonli tabiatdagi barcha mavjudotlardan eng qudratlisi insondir. Inson fikrlaydi, mehnat qiladi, turli kashfiyotlar va ixtiro qiladi. Tabiat insonni ma'naviy boyitishning bitmas-tuganmas manbaidir. Tabiat bilan inson o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda ekologik ta'lim-tarbiyaning roli nihoyatda katta. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya insonning tabiatiga, qolaversa, o'ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otish ona Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an'alariga hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi qadimdan ekologik madaniyat tushunchasiga ega. Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz «Avesto» xalqimizning bebaho mulki sanaladi. Bu nodir kitob bundan o'ttiz asr muqaddam shu zaminda yashagan ajdodlarimizning biz avlodarga qoldirgan ma'naviy tarixiy merosidir. «Avesto», ayni zamonda, bu qadim o'lkada buyuk davlat, yuksak ma'naviyat va madaniyat bo'lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdir. «Avesto» tabiat jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarni ma'naviy, ruhiy va axloqiy mezonlar orqali uyg'unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni o'rganishga chorlaguvchi falsafadir.

«Avesto»da noyob dorivor g'iyohlar haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, uy-joy, atrof-muqit, tabiatni muhofaza qilish, uni asrash to'g'risida tavsiyalar berilgan. «Avesto»da yer, suv, xona, inson tana azolari, kiyim-kechaklarni toza tutish haqida yozilgan. Atrof-muhit, ko'chalarni, butazorlaru o'tloqlarni, yerni iflos qilgan kishilar jazolanganlar. Shuningdek, muhit tozaligini saqlash va kasalliklarni oldini olish maqsadida axlatlarni, ifloslangan joylarni tosh, tuproq, qum bilan ko'mib tashlash buyurilgan. Asarda kasallik tarqatuvchi hasharotlarni yo'qotish, shuningdek, uy hayvonlarini to'g'ri parvarish qilish yo'llari ham ko'rsatilgan. "Avesto"da dunyoning yaratilishi, insonning xalq bo'lib kamol topishi, ezgulik uchun yovuz kuchlar bilan kurashi, erkinlik, ijodkorlik va bunyodkorlik yo'lidagi orzulari o'z ifodasini topgan. "Avesto" faqat odamninggina emas, balki bir hovuch tuproq, bir qultum suv, bir nafaslik havoning ham muqaddas ekanligi haqidagi kitob. "Avesto" yerning, daryolaru bog'lar, tog'laru buloqlar, ko'lu sahrolar, otu tuyalar uyuri, molu itlar, o'simligu g'iyohlarning bunyod etish tarixiga doir asar. Ajdodlarimiz ekologik ta'lim-tarbiya borasida ham boy meros qoldirgan. Bunga "Avesto"da ifodalangan ekologik yo'nalishdagi qarashlar va o'gitlar, zardushtiylik bilan bog'liq an'analari, urf-odatlar, bayramlar, suvga, yerga sajda qilish, olovning poklovchi kuchiga e'tiqod, ajdodlar ruhiga topinish misol bo'la oladi. Zardushtiylikning yaratuvchilari turli xalqlarning tabiatga va tabiat hodisalariga topinishidan, diniy bayramlar va urf-odatlaridan ustalik bilan foydalanganlar. Uning negizidagi asosiy narsa yorqin dualizm: dunyoning ibtidosidagi nur va zulmat, ezgulik va yovuzlik bo'lib, ular yaxshilik xudosi Ahuramazda va yovuzlik xudosi Anhramanu timsolida namoyon bo'ladi. Ularning birinchisi ezgu hodisalar: yer, suv, havo, olovning ijodkori bo'lib, hayot, poklik, salomatlik, aql, ezgulik timsoli hisoblansa; ikkinchisi ifloslik, nopoklik, kasalliklar, o'lim yaratuvchisi shu bilan birga yolg'on, yovuzlik, axloqiy tubanlik timsolidir. Qadimgi zardushtiyning o'ziga xos o'simlik va hayvonot olami, hayot tarzi bilan aloqador tarixiy sharoit havo, suv, tuproq va olovning ilohiylashtirilishiga olib keldi. "Avesto" da hayvonlarga ozor bermaslik, ularni asrash chora-tadbirlari to'g'risida, turli xil suvlar va ularning foydasi haqida yozilgan. "Avesto" da maxsus bo'lim bo'lib, uning nomi "Suvlar qasidasi" dir. Unda Markaziy Osiyoning yirik daryolaridan biri – Amudaryo haqida so'z yuritiladi. Suvni toza tutish uchun qo'yilgan talablar tuproqqa ham qo'yilgan. Ona zamin tabiatning ajralmas bo'lagi, shu sababli ajdodlarimizning yerga mehri o'zgacha bo'lgan. Ona zaminni ehtiyot qilishda sir-asror mo'l-ko'l, karomat kattadir. Chunki yer barcha boylikning asosi, butun tiriklikning manbaidir. Zardushtiylik

e'tiqodicha, yer har xil iflos narsalar, ayniqsa, inson va hayvonlar jasadining ko'milishidan paydo bo'ladigan narsalardan poklanishga ehtiyoj sezadi. E'tiqodga ko'ra, o'limning o'zi ham yovuz kuchlarning ishi hisoblangan. Bu yovuz kuchlar o'limdan so'ng ham jasad atrofini tark etmaydi. Shunga ko'ra vafot etganlarning jasadlari tog' qoyalari, sahrolar, maxsus sokinlik minoralarida qoldirilgan va ularning suyaklariga qolmaguncha qo'l tekkizilmagan. So'ng suyaklar yig'ilib maxsus idish – "assuar"larga solingan va maxsus joylarga ko'milgan. E'tiqod qiluvchilar uchun o'lik tananing muqaddas yer, suv yoki o'simliklarga tegib turmasligi favqulodda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Zardushtiylilik ta'limotida atrof muhitga nisbatan madaniyatning teranligi va kuchliligi insonni hayratga soladi. Zero, uning dolzarbligi hozir ham o'z kuchini saqlab qolmoqda. Bu o'rinda yerni ifloslantirmay va hosildorligicha saqlash, o'simlik va daraxtlarni o'stirish, hayvonlarni parvarishlash kabi masalalar ko'zda tutilgan. Axlatlarni maxsus usulda tozalash lozim bo'lgan. Toza va quruq axlat, masalan, singan idish, suyaklar yerga zarar keltirmaydigan narsalar sifatida ko'mib tashlangan.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi davrlardayoq o'zlarini tabiatning bir qismi ekanligini anglab, tabiatga hurmat bilan qaraganlar. O'z bolalarini tabiatga nisbatan chuqur hurmat, e'tiqod ruhida tarbiyalaganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baxtiyrovna E. G. Factors that Increase Lesson Effectiveness in Primary Education //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 2. – С. 231-235.

2. Ergasheva G. Личностное отношение-условие учебной и профессиональной деятельности учителя //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.

3. Ergasheva G. B. ZAMONAVIY JAMIYATDA FAN VA TA'LIMNING RIVOJLANISHIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 969-974.

4. Ergasheva G. B., Tohirova S. MUSTAQILLIK NE'MATIGA SHUKRONA QILISH VA UNING MUSTAHKAMLIGINI SHAQLASH //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1196-1200.

5. Ergasheva G. НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕТОДОВ И СРЕДСТВ ОБУЧЕНИЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

6. Ergasheva G. МАКТАБГАЧНА ТА'LIM TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH SHORA TADBIRLARI TO'G'RISIDA //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

7. Ergasheva G. ДИДАКТИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К ЗАНЯТИЯМ МАТЕМАТИКОЙ В ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

8. Эргашева Г. Б., Раджабова И. Х. ДИДАКТИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К ЗАНЯТИЯМ МАТЕМАТИКОЙ В ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).

9. Эргашева Г. Б., Хожиева М. У. Одаренность детей дошкольного возраста //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 31.

10. Эргашева Г. Б., Рахматова Г. Б. К. Некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в учебном процессе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46).

11. Эргашева Г. Б., Ахмедова Н. М. Беседа как метод формирования диалогической речи для детей дошкольного возраста //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 11-2 (98). – С. 76-77.

12. Эргашева Г. Б. Использование интегрированных технологий в высшем образовании //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-3 (91). – С. 74-75.

TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJTIMOY-HUQUQIY ME'YORLARGA HURMAT HISSINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Hakimova Nargiza Supxonovna,

BuxDU maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada ijtimoiy - huquqiy m'yorlar, ularning jamiyat rivojidadagi o'rni va ahamiyati, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga ijtimoiy - huquqiy m'yorlar haqida tushuncha berish, ular ongida ushbu m'yorlarga amal qilish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari haqida so'z boradi.